

XARID QILUVCHILARGA HISOBVARAQ-FAKTURANI TUZISH VA TAQDIM ETISH TALABLARI

Toshkhojaev Hikmatillakhoja Rakhmatullaevich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti tinglovchisi, kapitan

Annotatsiya: Hisobvaraq-fakturalarni to'g'ri tuzish va o'z vaqtida taqdim etish xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq intizomini mustahkamlaydi, davlat byudjetiga tushumlarni barqarorlashtiradi hamda tadbirkorlik muhitida shaffoflikni ta'minlaydi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan hisobvaraq-fakturalarni tuzish va taqdim etish tartibi, ularning iqtisodiy hamda huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, hisobvaraq-fakturalarning elektron shaklda yuritilishi, soliqqa oid majburiyatlarni bajarishdagi o'рни va zamonaviy raqamlashtirish jarayonlari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются порядок составления и представления счет-фактур, установленные Налоговым кодексом Республики Узбекистан, а также их экономическое и правовое значение. Кроме того, рассматриваются вопросы ведения счет-фактур в электронном виде, их роль в исполнении налоговых обязательств и современные процессы цифровизации.

Annotation: This article analyzes the procedure for preparing and submitting invoices established by the Tax Code of the Republic of Uzbekistan, as well as their economic and legal significance. In addition, it examines the issues of maintaining invoices in electronic form, their role in fulfilling tax obligations, and modern digitalization processes.

Kalit so'zlar: soliq to'lovchi, hisobvaraq-faktura, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), elektron hujjat aylanishi, Soliq kodeksi, fiskal hujjat.

KIRISH

Soliq kodeksida soliq to'lovchilar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi soliq to'lovchilarning asosiy majburiyatlaridan biri sifatida belgilangan.

Hisobvaraq-faktura sotuvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini xaridor (buyurtmachi) hisobga olishi uchun asos bo'ladigan birlamchi hujjat hisoblanadi. Hisobvaraq-fakturada tovarlarning (xizmatlarning) qiymati milliy valyutada, so'mda ko'rsatiladi. Bunda, summa ko'rsatilayotganda butun sondan so'ng yuzdan birgacha yaxlitlanishi lozim bo'ladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotlarda:

- mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, tara va tarabop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralari;

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchilarga hisobvaraqa-fakturani taqdim etishi shart.

Hisobvaraqa-faktura, qoida tariqasida, elektron hisobvaraqa-fakturalarning axborot tizimida elektron shaklda rasmiylashtiriladi.¹ Hisobvaraqa-faktura qog'oz shaklda rasmiylashtirilsa kamida ikki nusxada tuziladi va ulardan biri tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchiga taqdim etiladi.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish chog'ida, agar sotuvchi xaridorga kassa cheki yoki belgilangan shakldagi boshqa hujjatni bersa, hisobvaraqa-faktura taqdim etilmaydi.

Realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) qiymati o'zgarganda, shu jumladan yetkazib berilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar narxi o'zgargan yoxud miqdori (hajmi) aniqlashtirilgan hollarda, sotuvchi sotib oluvchiga belgilangan tartibda qo'shimcha yoki tuzatilgan hisobvaraqa-fakturani taqdim etishi shart.

Chet el yuridik shaxslari hisobvaraqa-fakturalarni taqdim etmaydi, balki sotib olish reyestrlarini, sotish reyestrlarini, hisobga olish jurnallarini hamda o'rnatilgan xizmatlarni ko'rsatish qismi bo'yicha qabul qilingan va berilgan hisobvaraqa-fakturalarni yuritmaydi.

Hisobvaraqa-fakturaning shakli va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hisobga olish hujjatlari elektron shaklda tuzilgan taqdirda soliq to'lovchi (soliq agenti) soliq tekshiruvi chog'ida soliq organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko'ra bunday hujjatlarning qog'ozdagi ko'chirma nusxalarini taqdim etishi shart, bundan elektron hisobvaraqa-fakturalarning axborot tizimida ro'yxatga olingan hisobvaraqa-fakturalar mustasno.

Hisobga olishda har bir soliq to'lovchiga O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona bo'lgan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami beriladi va uning hisob ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestriga kiritiladi. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami soliq to'lovchining identifikatsiya raqami hisoblanadi. Jismoniy shaxslarni soliq organlarida soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yish ularga vakolatli organ tomonidan identifikatsiyalovchi ID-kartalarni yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini berish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Bunda soliq to'lovchi hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi alohida hujjat berilmaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr -T.: "Adolat", 2019. 47-moddasi.

Har bir soliq to'lovchi o'zining soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini soliq hisobotlarida, soliq organiga taqdim etiladigan arizalar va boshqa hujjatlarda, shuningdek, yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan xo'jalik, fuqarolik-huquqiy va mehnat shartnomalarida, yuridik shaxslar va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bitimlar tuzilganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan hisobvara-q-fakturalarda va tovar-kuzatuv hujjatlarida majburiy ko'rsatadi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvara-q-fakturada aks ettirganlik hisobvara-q-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish hisoblanib, mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvara-q-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvara-q-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini budjetga to'lashi shart.

Soliq kodeksiga asosan mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan hisobvara-q-faktura taqdim etilgan sana yoki tovarlar jo'natilgan (berilgan) sana, agar ushbu sana hisobvara-q-faktura taqdim etilgan sanadan oldin kelsa, tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir. Agar tovarni jo'natish (berish) amalga oshirilmasa, tovarga bo'lgan mulk huquqi xaridorga o'tkazilgan kun tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hisobvara-q-faktura yoki boshqa hujjat rasmiylashtirilgan (imzolangan) sana xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Elektr va (yoki) issiqlik energiyasi, suv, gaz, kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, moliyaviy va sug'urta xizmatlari, quvurlar tizimi orqali yuklarni tashishga doir xizmatlar realizatsiya qilinganda, tovarlar (xizmatlar) doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan boshqa hollarda tovarlar yetkazib berilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) kalendar oyning so'nggi kuni tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Obyektlar qurilishida, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor holda qurishda, shuningdek uzoq (bir soliq hisoboti davridan ortiq) texnologik davriylikdagi uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha, agar tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar shartlarida xizmatlarni har oyda topshirish nazarda tutilmagan bo'lsa, har bir kalendar oyning oxirgi kuni aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi taraflari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga ko'ra mol-mulk ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) tasarrufiga berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Xaridlar va sotuvlar reyestrlarini, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalarni hisobga olish daftarlarini yuritish shakllari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qo‘shimcha hisobvara-q-faktura yoki quyidagi hollarda:

- tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;
- bitim shartlari o‘zgarganda, shu jumladan jo‘natilgan tovarlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o‘zgarganda;
- tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda tuzatish kiritish shartnoma shartlarida yoki soliq to‘lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo‘lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo‘yicha shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to‘lashni nazarda tutishi mumkin. Yuqorida nazarda tutilgan hollar ro‘y bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Bunda ilgari yozib berilgan hisobvara-q-fakturaga o‘zgartish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish zarur bo‘lganda ilgari yozib berilgan hisobvara-q-faktura bekor qilinadi va uning o‘rniga qonunchilikda belgilangan tartibda tuzatilgan hisobvara-q-faktura rasmiylashtiriladi. Xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo‘shimcha hisobvara-q-faktura asosida ilgari o‘zi hisobga olish uchun qabul qilgan soliq summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi (ko‘paytiradi yoki kamaytiradi).

Hisobvara-q-fakturada quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

- hisobvara-q-fakturaning tartib raqami;
- hisobvara-q-faktura ilova qilinadigan tovar jo‘natish (xizmatlarni ko‘rsatish) hujjatning yoki shartnomaning raqami va sanasi;
- tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilingan sana;
- yetkazib beruvchining va tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchining nomi, joylashgan joyi (pochta manzili) hamda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, bank hisobvarag‘i va xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi hamda filliallararo ayriboshlash kodi (MFO);
- QQS ro‘yxat raqami.

Hisobvara-q-faktura quyidagi tartibda to‘ldiriladi (4.3-jadval)²:

- 1-ustunda - tovarlar (xizmatlar) nomi;
- 2-ustunda - raqamli markirovka mavjudligi;

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgust kunidagi “Qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 489-son Qarori.

3-ustunda - tovarlarning (xizmatlarning) Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodi;

4-ustunda - tovarlar (xizmatlar) shtrix kodi;

5-ustunda - tovar (xizmat) o'lchov birliklari. Ko'rsatkich mavjud bo'lmaganda ustun to'ldirilmaydi;

6-ustunda - o'lchov birligidan kelib chiqib realizatsiya qilingan tovarlar miqdori (ko'rsatilgan xizmatlar hajmi). Ko'rsatkich mavjud bo'lmaganda ustun to'ldirilmaydi;

7-ustunda - QQSni hisobga olmagan holda tovar (xizmat) o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif);

8-ustunda - realizatsiya qilingan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aksiz solig'ini qo'shgan holdagi (QQSsiz) qiymati;

9-ustunda - QQS stavkasi;

10-ustunda - tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchiga taqdim etiladigan QQS summasi.

4.3-jadval

20__ yil «__» _____ dagi ____-son shartnomaga

20__ yil «__» _____ dagi ____-son

HISOVARAQ-FAKTURA

Etkazib beruvchi _____

Manzil: _____

Etkazib beruvchining identifikatsiya raqami (STIR) _____

QQS ro'yxat raqami _____

Bank hisobvarag'i _____

Bank MFO _____

Sotib oluvchi _____

Manzil: _____

Sotib oluvchining identifikatsiya raqami (STIR) _____

QQS ro'yxat raqami _____

Bank hisobvarag'i _____

Bank MFO _____

TG'r	Tovar (xizmat)lar nomi	Tovar (xizmat)larning Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodi	Tovar xizmat shtrix kodi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Etkazib berish qiymati	QQS		Etkazib berishning QQSni hisobga olgan holda qiymati
								stavka	summa	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1										
2										
Jami										

Rahbar _____

Oldim _____ 20__
yil «__» ____dagi
____-son ishonchnoma
bo'yicha

Tovarni berdim _____

(yetkazib beruvchi mas'ul shaxsining imzosi)

QQS to'lovchilari hisoblanmagan yoki realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasi QQSDan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchilar tomonidan 9-ustunda «Qo'shilgan qiymat solig'isiz» yoki «QQSsiz» yozuvi qayd etiladi;

11-ustunda - realizatsiya qilingan tovarlarning (xizmatlarning) QQSnı qo'shgan holdagi jami qiymati.

Yakunlovchi satrda - tovarlar realizatsiya qilinganda hisobvaraƒ-fakturada markirovkalash kodlari biriktirilishi shart.

Aksiz solig'i to'lovchilari hisobvaraƒ-fakturada aksiz solig'i stavkasi va aksiz solig'i summasini ko'rsatishlari shart.

Tovarlar (xizmatlar) budjet tashkilotlariga yetkazib berilganda hisobvaraƒ-fakturada birja savdosining lot raqami ko'rsatilishi shart.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hisobvaraƒ-fakturalarni tuzish va xaridorga o'z vaqtida taqdim etish amaliyoti soliq tizimining shaffofligi va intizomini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat soliqqa oid hisob-kitoblarni to'g'ri yuritish, balki davlat byudjeti daromadlarining o'z vaqtida va to'liq tushishini kafolatlaydi.

Hisobvaraƒ-faktura — bu tovar (ish, xizmat) realizatsiyasining qonuniy tasdig'i, sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni hujjatlashtiruvchi asosiy vositadir. Soliq kodeksi bilan belgilanganidek, HVFni taqdim etish soliq to'lovchining asosiy majburiyatlaridan biri bo'lib, uning bajarilishi soliqqa oid tartib-intizomni mustahkamlaydi.

Shuningdek, hisobvaraƒ-fakturalar orqali qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha hisobga olish tizimi shakllanadi, bu esa davlat soliq organlariga iqtisodiy faoliyatni real

vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. HVFdagi ma'lumotlar soliq hisobotlarining asosiy tarkibiy qismi sifatida ishlatiladi, shuning uchun ularning aniqligi va to'liqligi iqtisodiy axborotlarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda elektron hisobvaraqa-faktura (EHF) tizimining joriy etilishi bu jarayonni tubdan soddalashtirdi, hujjat aylanishini tezlashtirdi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirdi. EHF tizimi orqali soliqqa oid ma'lumotlarning avtomatik almashinuvi ta'minlanib, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida raqamli ishonch muhiti shakllanmoqda.

Kelgusida elektron hujjat aylanishi tizimini yanada takomillashtirish, hisobvaraqa-fakturalarning xalqaro standartlarga mos integratsiyasini yo'lga qo'yish, avtomatik soliq hisob-kitob algoritmlarini kengaytirish O'zbekiston soliq tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, hisobvaraqa-fakturalarni to'g'ri tuzish va taqdim etish — bu nafaqat soliq majburiyatlarini bajarish, balki iqtisodiyotda shaffoflik, mas'uliyat va halollik tamoyillarini mustahkamlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — 2020-yil 30-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi qarori "Hisobvaraqa-fakturalarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida" — 2021-yil 15-iyun.
3. "Elektron hisobvaraqa-fakturalar to'g'risida" nizom, Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 17-avgustda 3381-son bilan ro'yxatdan o'tgan.
4. Sh. Xudoyberdiyev. Soliq hisobotlarida raqamlashtirish jarayonlari. — Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023-yil, №4.
5. M. Karimov. O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. — Toshkent: "Adolat", 2022.